



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 12 iyun

№ 1905

Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2024/2025 o'quv yili uchun qabul kvotasini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 iyundagi "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq tergov sudyasi lavozimi joriy etilganligi munosabati bilan, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7,17-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2024 yil 12 iyundagi xulosasiga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I :

1. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2024/2025 o'quv yili uchun qabul kvotasi **185** (bir yuz sakson besh) ta qilib belgilansin.

Shundan:

Umumiy kvota: 165 (bir yuz oltmish besh) ta

Jinoyat huquqi yo'nalishi bo'yicha: **95** (to'qson besh) ta;

Fuqarolik huquqi yo'nalishi bo'yicha: **40** (qirq) ta;

Iqtisodiy huquq yo'nalishi bo'yicha: **15** (o'n besh) ta;

Ma'muriy huquq yo'nalishi bo'yicha: **15** (o'n besh) ta;

Qo'shimcha kvota: 20 (yigirma) ta

Xotin-qizlar uchun har bir yo'nalish bo'yicha
qo'shimcha 5 tadan: **20** (yigirma) ta.

2. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2024 yil 3 maydagi 1898-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov